TA’LIM TIZIMIGA SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN TAJRIBALAR QO‘LLASHNING DIDAKTIK ASOSLARI

O‘rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi - ADPI dotsent v.b
Usubjonova Durdona Fazliddin qizi - ADPI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tizimida sun’iy intellekt tehnologiyalarining didaktik asoslari va amaliy qo‘llanilishi batafsil tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonlarida sun’iy intellekt vositalarining ro‘li tobora oshib borayotgani, ular yordamida o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash, o‘qitish samaradorligini oshirish hamda pedagogik jarayonni interaktiv va adaptiv qilish imkoniyatlari ochib beriladi. Maqolada sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan o‘quv tajribalarning metadologik jihatlari , o‘quv maqsadlariga erishishda didaktik pritsiplar bilan uyg‘unlashuvi va innovatsion pedagogik yondashuvlarga ta’siri ko‘rib chiqiladi.Maqola natijalariga ko‘ra, sun’iy intellektga asoslangan didaktik tajribalar ta’lim jarayonini yanada moslashuvchan, interaktiv va natijaviy qilishda nuhun ahaniyatga ega ekani takidlanadi hamda kelajakda ta’lim sohasida innovatsion tehnologiyalarni yanada keng qo‘llash istiqbollari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, ta’lim tizimi, didaktik asoslar, innovatsion tehnologiyalar, o‘quv tajribasi, pedagogic yondashuv, individual ta’lim.

Kirish: 2021-2022-yillarda sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-2022-yillarda sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni doirasida quyidagi chora tadbirlar belgilangan. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot tehnologiyalari universiteti qoshida Artificial Intelligence and Data Science ilmiy- tadqiqot institutini tashkil etish. Mashinaviy o‘rganish, kompyuter yordamida ko‘rish va ma’lumotlar tahlilchisi yo‘nalishlari bo‘yicha doktorant va mustaqil tadqiqotchilarni tayyorlash uchun qo‘shimcha kvotalar ajratish. Sun’iy intellekt sohasida mahalliy va horijiy ilmiy- tadqiqot muassasalarining hamkorligini rivojlantirish. Umumta’lim maktablarida, Axborotlashgan jamiyat va unda sun’iy intellekt o‘rni mavzusida ochiq darslar tashkil etish [1].

Prezidentning 2021- yil 17- fevraldagi PQ-4996- sonly qarori sun’iy intellekt tehnologiyalarini ta’lim tizimiga keng joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Ushbu qaror doirasida ta’lim muassasalarida SI texnologiyalarni qo‘llash uchun zaruriy infratuzilma yaratish. O‘qituvchilarni SI texnologiyalaridan samarali foydalanishga o‘rgatish. SI asosida avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish [2].

Bugungi kunda raqanli tehnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir davrda, ta’lim tizimini zamonaviylashtirish va uning sifatini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ayniqsa, sun’iy intellekt (SI) tehnologiyalarining turli sohalarda, jumladan, ta’lim jarayonida keng qo‘llanilishi yangi didaktik yondashuvlarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda [3]. Sun’iy intellekt o‘qitish jarayonini avtomatlashtirish, shaxsiylashtirilgan ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, baholash tizimlarini optimallashtirish va o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vositaga aylanmoqda.

Ta’lim tizimida sun’iy intellekt tehnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy raqamli vositalar o‘qitishning samaradorligini oshirishda, shaxsiylashtirilgan yondashuvlarni joriy etishda va o‘quvchilar faoliyatini monitoring qilishda katta imkoniyat yaratmoqda. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi platformalar (masalan, adaptive o‘quv dasturlari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va tahliliy vositalar) orqali har bir o‘quvchining bilim darajasi va ehtiyojlariga mos individual ta’lim yo‘llari tashkil etilishi mumkin. [4].

Didaktik nuqtai nazardan, SI tehnologiyalari o‘qitishning yangi shakl va metodlarini qo‘llashga zamin yaratadi, ilg‘or vizualizatsiya, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar orqali fanlarni chuqur va interaktiv tarzda o‘rganish imkoni mavjud bo‘lmoqda. SHuningdek, SI vositalari orqali o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish motivatsiyasi ortadi, chunki o‘quv jarayoni o‘yinlar va interaktivlik orqali qiziqarli shaklga kiradi. SI texnologiyalarini qo‘llagan o‘quv muassalarida o‘quvchilarning bilim ko‘rsatgichlari va baholash natijalari an’anaviy usullarga nisbatan yuqori bo‘lgan.[5] SHu bilan birga , bu tehnologiyalarni joriy etishda o‘qituvchilarning raqamli savodhonligini oshrish, ularga metodik qo‘llanmalar yaratish va infratuzilmani rivojlantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Sun’iy intellekt tehnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish ta’lim sifatini oshiradi va shahsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydi. O‘zbekiston ta’lim tizimida SI tajribalar samarli natijalar bermoqda, ammo ularni ommalashtirish uchun metodik, tehnik va pedagogik jihatdan qo‘shimcha choralar zarur.

Sun’iy intellekt tehnologiyalarining ta’lim tizimiga joriy etilishi ta’lim jarayoning sifatini va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. O‘zbekiston Respublikasining president farmonlari va qarorlari bu yo‘nalishda muhim huquqiy va tashkiliy asoslarni yaratib, raqamli ta’lim infratuzilmasini rivojlantirishga imkon berdi. Didaktik jihatdan, sun’iy intellekt o‘quvchilarning individual o‘quv ehtiyojlariga moslashgan, interaktiv va qiziqarli ta’lim jarayonini tashkil etishga yordam beradi. SHu bilan birga, bu tehnologiyalar o‘qituvchilarga ham o‘z ishini samaraliroq tashkil etish va ta’lim sifatini oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

Kelajakda sun’iy intellekt tehnologiyalarining ta’lim sohasidagi samaradorligini oshirish uchun pedagoglarning malakasini doimiy ravishda oshirish handa ta’lim infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarur bo‘ladi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida inson omilining ahamiyatini saqlab qolgan holda, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish ta’lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining axborot xabarlari (2022-2023).

2. Rkhimov, A. (2022). Didaktik tizimda sun’iy intellekt tehnologiyalarning qo‘llanilishi. O‘zbekiston pedagogika jurnali.

3. Turayev, N. (2023). Ta’lim tizimida sun’iy intellekt tehnologiyalarining o‘rni. Toshkent: ilm ziyo nashriyoti

4. UNESCO(2021). Artificial intelligence in Education: challenges and opportunities: Capabilities and Assesments. OECD Publishing.

5. Anderson, J. R.(2019). Cognitive Psychology and Its Implications. New York : Worth Publisher